

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan
2024 yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT

2024-yilda Agentlik tomonidan **49 turdagi** test sinovlari o'tkazildi va ularda jami **1 563 972 nafardan ortiq** talabgor ishtirok etdi.

Jumladan:

I. Test topshiriqlari bazasini shakllantirish bo'yicha:

15 ta umumta'lim fanidan **103 146 ta**, **110 ta** maxsus fandan **34 226 ta** va milliy sertifikat berish uchun **9 ta** umumta'lim fanidan (matematika, fizika, kimyo, biologiya) **1 485 ta** test topshirig'i shakllantirildi va ekspertizadan o'tkazildi.

II. Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi bo'yicha:

9 ta umumta'lim fani (biologiya, kimyo, matematika, fizika, tarix, geografiya, ona tili va adabiyot, rus tili va adabiyot hamda qoraqalpoq tili va adabiyot)dan milliy sertifikat berish bo'yicha **136 779 nafar** talabgor uchun test sinovlari o'tkazildi.

Test sinovi natijalariga ko'ra sertifikat talabini bajargan **101 037 nafar** talabgor umumta'lim fanini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikatga ega bo'ldi.

III. Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha:

16 ta (ingliz, nemis, fransuz, turk, arab, yapon, xitoy, koreys, hindiy, fors, italyan, ispan, pushtu, urdu, dari, uyg'ur) chet tilidan **4 ta** ko'nikma bo'yicha **241 581 nafar** talabgorning chet tilini bilish darajasi baholash uchun ro'yxatdan o'tdi. Shundan **235 405 nafar** talabgorning chet tilini bilish darajasi baholandi.

Test sinovi natijalariga ko'ra sertifikat talabini bajargan **189 484 nafar** talabgorga chet tilini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikat taqdim etildi. Shundan **105 016 nafariga B1**, **76 800 nafariga B2**, **7 668 nafariga C1** darajadagi sertifikatlar taqdim etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmon va u bilan tasdiqlangan 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejalarida belgilangan topshiriq ijrosini ta'minlash hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizimni yaratish, ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish maqsadida Agentlik mutaxassislari tomonidan ko'zi ojiz shaxslarga mo'ljallangan dastlabki onlayn so'rovnoma ishlab chiqildi va Agentlikning so'rov xati asosida Ko'zi ojizlar jamiyati bilan hamkorlikda 15-martga qadar I va II guruh nogironligi bo'lgan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar uchun onlayn so'rovnoma tashkil etildi. So'rovnomada **104 nafar** ko'zi ojiz va zaif

ko'ruvchilar ishtirok etdi. So'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, format loyihasi shakllantirildi.

Agentlikning 2024-yil 16-noyabrdagi 01-673-son buyrug'iga asosan imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi) shaxslar uchun maxsus ishlab chiqilgan chet tilini bilish darajasini aniqlash imtihon formati belgilangan tartibda Toshkent shahri va Toshkent viloyati uchun Bilimni baholash agentligi binosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda belgilangan binolarda O'zbekiston Respublikasi Ko'zi ojizlar jamiyati vakillari bilan hamkorlikda aprotatsiyadan o'tkazildi.

Ko'zi ojiz shaxslar uchun ishlab chiqilgan format asosida chet tilini bilish darajasini aniqlash test sinovlari aprotatsiyasi natijalari Agentlik Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 21-noyabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 10-son yig'ilishida muhokama qilindi va Kengash qaroriga asosan amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etildi.

Agentlikning 2024-yil 28-noyabrdagi 01-707-son buyrug'iga asosan Agentlik binosida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarga mo'ljallangan chet tilini bilish darajasini aniqlash maxsus imtixonini tashkil etildi.

IV. Rahbar kadrlar hamda mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha:

Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha **1029 nafar** talabgor test sinovidan o'tkazildi va test sinovi natijalariga ko'ra jami **363 nafar** talabgorga elektron shaklda sertifikat taqdim etildi.

V. Xorijiy davlatda ta'lim olganlik haqidagi hujjatlarni tan olish hamda ta'lim va fan sohasiga oid tashkilotlardan chiqadigan hujjatlarga apostil qo'yish:

A) 2024 yilning o'tgan davri mobaynida xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik haqidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha **7 804 ta** murojaat ko'rib chiqildi. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik haqidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha **22 ta** test sinovlari tashkil etilib, unda **4 020 nafar** talabgor ishtirok etishi ta'minlandi. Test sinovlarini tashkil etish maqsadida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisilari bo'yicha **387 ta** mutaxassislik fanlaridan **34 500 dan ortiq** test topshiriqlari bazasi shakllantirildi.

Ekspert komissiyalarining ijobiy xuloasasiga ega bo'lgan **3 546 nafar** (shundan, **534 nafari** test sinovi natijalariga asosan, **3 012 nafari** test sinovlarisiz to'g'ridan to'g'ri) talabgorlarning hujjati tan olinib, talabgorlarga tegishli guvohnomalar taqdim etildi.

B) 2024 yilning o'tgan davri mobaynida ta'lim va fan sohasiga oid tashkilotlardan chiqqan hujjatlarga apostil qo'yish bo'yicha **26 187 ta** murojaat kelib tushgan. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra **25 466 ta** hujjatga apostil berilishi ta'minlandi. Shuningdek, tegishli talablarga javob bermagani sababli **721 ta** hujjatga apostil berish rad etilgan.

VI. O'tkazilgan boshqa tadbirlar:

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Kompetensiyani rivojlantirish instituti tinglovchilari uchun **4 350 nafar** talabgor uchun test sinovlari o'tkazildi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga talabgor tayanch doktorantlar uchun **79 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

O'zbekistondagi davlat oliy ta'lim muassasalarining ikkinchi bosqich qo'shma ta'lim dasturlarida o'qitish olib boriladigan chet tili bo'yicha **5 126 nafar** talabgor uchun test sinovlari o'tkazildi;

Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini aniqlash bo'yicha **24 367 nafar** talabgor uchun test sinovlari o'tkazildi;

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining magistratura mutaxassisligiga o'qishga qabul qilish bo'yicha **1 021 nafar** talabgor uchun test sinovlari o'tkazildi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan to'lanadigan har oylik ustamalarga nomzodlarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasini baholash uchun **3 749 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati xodimlarining farzandlaridan Xitoy Xalq Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun nomzodlarni tanlab olish bo'yicha **104 nafar** nomzod uchun test sinovlari o'tkazildi;

Bank-moliya akademiyasining magistratura mutaxassisligiga o'qishga qabul qilish bo'yicha **7 705 nafar** talabgor uchun test sinovlari o'tkazildi;

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining "Davolash ishi" ta'lim yo'nalishi 6-bosqich talabalarining endokrinologiya va onkologiya fanlari bo'yicha bilim darajasini baholash uchun **1 914 nafar** talabaga test sinovlari o'tkazildi;

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun o'tkaziladigan test sinovlarida foydalaniladigan test topshiriqlarini aprobatsiyadan o'tkazish bo'yicha **17 580 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilishda ularning intellektual qobiliyat darajasini aniqlash uchun tuzilgan test topshiriqlarini aprobatsiyadan o'tkazish bo'yicha **440 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

2024/2025-o'quv yilida ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish test sinovlariga jalb etiladigan guruh nazoratchiligiga nomzodlar uchun o'quv-seminar mashg'ulotlari bo'yicha **6 513 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarining "Boshlang'ich ta'lim" va "Biologiya" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalarining bilim darajasini baholash bo'yicha **1 430 nafar** talabaga test sinovlari o'tkazildi;

Huquqshunoslik fanini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish uchun o'tkazilgan test topshiriqlarini aprotatsiyadan o'tkazish bo'yicha **2 000 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari uchun **539 nafar** nomzodga test sinovlari o'tkazildi;

Nodavlat ta'lim muassasalarining "Boshlang'ich ta'lim" ta'lim yo'nalishi talabalarining bilim darajasini baholash bo'yicha **1 368 nafar** talabaga test sinovlari o'tkazildi;

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilish bo'yicha maxsus psixologik tanlov va yozma imtihoni (diktant) **2 633 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Toshkent shahridagi Puchon universiteti abituriyentlari uchun **461 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul bo'yicha **62 nafar** nomzodga test sinovlari o'tkazildi;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasining "Psixologiya (Harbiy psixologiya)" ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul bo'yicha **41 nafar** nomzodga test sinovlari o'tkazildi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa-harbiy institutining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilish bo'yicha **542 nafar** nomzodga test sinovlari o'tkazildi;

Prezident maktablariga o'qishga qabul qilish bo'yicha I bosqich test sinovlarida **56 985 nafar** o'quvchi ishtirok etdi;

Respublika oliy ta'lim muassasalari akademik litseylariga o'qishga qabul bo'yicha o'tkazilgan test sinovlarida **44 359 nafar** o'quvchi ishtirok etdi;

Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi akademik litseylariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan test sinovlarida **8 442 nafar** o'quvchi ishtirok etdi;

Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan test sinovlarida **352 nafar** o'quvchi ishtirok etdi;

Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseylarga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan test sinovlarida **4 250 nafar** o'quvchi ishtirok etdi;

“Temurbeklar maktabi”, “Yosh chegarachilar”, Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseylariga o‘qishga kirish uchun o‘tkazilgan test sinovlarida **5 677 nafar** o‘quvchi ishtirok etdi;

“El-yurt umidi“ jamg‘armasi Vasiylik kengashining 2024-yil 21-iyundagi 2-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida **1 105 nafar** nomzodga test sinovlari o‘tkazildi;

Jamoat xavfsizligi universitetining magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga qabul bo‘yicha **76 nafar** nomzodga test sinovlari o‘tkazildi;

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “6042010-Yurisprudensiya (prokurorlik faoliyati)” ta‘lim yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha **372 nafar** nomzodga test sinovlari o‘tkazildi;

Sudyalar oliy maktabiga magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga qabul bo‘yicha **521 nafar** nomzodga test sinovlari o‘tkazildi;

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha **366 nafar** nomzodga test sinovlari o‘tkazildi;

2024/2025-o‘quv yilida xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan mahalliy oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishini ko‘chirish bo‘yicha **43 882 nafar** talabaga test sinovlari o‘tkazildi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovini respublika bosqichi imtihonining tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmasi bo‘limlari bo‘yicha **70 nafar** talabgor bilimni ingliz va nemis tillaridan baholash sinovlari o‘tkazildi;

2024/2025-o‘quv yilida ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘lim uchun o‘qishga qabul qilish bo‘yicha **13 192 nafar** talabgorga test sinovlari o‘tkazildi;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi institutining magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga qabul bo‘yicha **78 nafar** nomzodga test sinovlari o‘tkazildi;

Toshkent shahrida Vebster universitetining ta‘lim dasturlarini amalga oshirish markaziga davlat buyurtmasi asosida o‘qishga qabul qilish uchun **132 nafar** talabgorga test sinovlari o‘tkazildi;

Imkoniyati cheklangan (ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi) shaxslar uchun ishlab chiqilgan maxsus imtixon formatining aprobatsiyasida **168 nafar** talabgorga test sinovlari o‘tkazildi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish uchun **3 564 nafar** talabgorga test sinovlari o‘tkazildi;

Navoiy innovatsiyalar universitetiga qabul qilingan 1-kurs talabalarini grant asosida o'qishga qabul qilish yuzasidan **591 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Ichki ishlar organlariga ishga kiruvchi nomzodlar uchun O'zbekistonning eng yangi tarixi, huquqshunoslik va tarbiya fanlari bo'yicha **332 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga nomzodlar (bakalavr va magistr) uchun **241 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Joylarda aholi muammolarini hal etishda mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan tuman (shahar)lardagi sektor rahbarlari-hokim, prokuror, ichki ishlar bo'limi hamda soliq inspeksiya boshliqlari uchun o'quv-amaliy seminar yakuni bo'yicha **829 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Tuman (shahar)lar hokimlari o'rinbosarlari, tashkiliy-kadrlar guruhi rahbarlari hamda milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar uchun o'quv-amaliy seminar yakuni bo'yicha **2 600 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi;

Turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda zamonaviy dam olish maskanlarini tashkil etish yuzasidan o'quv-amaliy seminar yakuni bo'yicha **36 nafar** talabgorga test sinovlari o'tkazildi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o'quv amaliy markazining 2024-yilda amalga oshirgan ishlari to'g'risida ma'lumot

Ilmiy markaz xodimlari tomonidan 2024 yilda pedagogik o'lchovlar bo'yicha **8 ta** ilmiy-uslubiy maqola ilmiy jurnallarda chop etildi.

2024-2025-o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish uchun o'tkazilgan test sinovi natijalari asosida (12 kun 1- va 2- smenalar bo'yicha, variantlar kesimida) mutaxassislik fanlaridan (fanlar va tillar kesimida – 35 ta) jami **1398 ta** ma'lumotlar klassik va zamonaviy test nazariyasi asosida statistik tahlil qilindi.

Ilmiy markaz mutaxassislari tomonidan rus tili va adabiyoti, biologiya, fizika, qoraqalpoq tili va adabiyoti fanidan milliy sertifikatlash tizimi doirasida test topshiriqlari shakllantirildi.

Ilmiy markaz tomonidan quyidagi qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etildi:

Chet tilini bilish darajasining yozish va gapirish ko'nikmalarini baholash bo'yicha **36 soatlik** malaka oshirish kursida **341 nafar**, Chet tilini bilish darajasining yozish va gapirish ko'nikmalarini baholash bo'yicha **24 soatlik** qayta malaka oshirish kursida **57 nafar**, Chet tilini bilish darajasini baholash uchun test topshiriqlarini shakllantirish bo'yicha **48 soatlik** malaka oshirish kursida **64 nafar** va Aniq va tabiiy fanlaridan bilim darajasini baholash bo'yicha test topshiriqlarini

shakllantirish bo'yicha **24 soatlik** malaka oshirish kursida **52 nafar** tinglovchilarning malakasi oshirildi.

Abiturientlarga qulaylik yaratish uchun tashkil etilgan umumta'lim fanlaridan milliy sertifikat uchun va chet tillarini bilish va egallash darajasini baholash uchun repetitsion test sinovlarida **2 074 nafar** talabgorlar ishtirok etishdi.

Markaz tomonidan xalqaro imtihonlar o'tkazuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda test sinovlari tashkil etish yo'lga qo'yildi. Jumladan, **ETS Global xalqaro tashkiloti** bilan hamkorlikda jami **6 marta TOEFL ITP** test sinovi o'tkazildi, unda jami **41 nafar** talabgor ishtirok etdi. **NEN xalqaro tashkiloti** bilan hamkorlikda **iTEP** imtihonlari tashkil etildi, unda jami **14 nafar** ishtirokchi va **Attanal al arabiy** imtihonida **8 nafar** ishtirokchi qatnashdi.

ETS GLOBAL xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda 2024-yil 18-aprel kuni o'tkazilgan "Progressing English Language Assessment – bilimni baholashda ishonch va muvaffaqiyatni oshirish" mavzusidagi anjumanda bo'lim boshlig'i M.Abdullaeva qatnashdi va Ilmiy o'quv amaliy markaz faoliyati haqida taqdimot qildi.

2024-yilning 30-31-oktyabr kunlari Qozog'istonning Astana shahrida bo'lib o'tgan baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Ilmiy markaz bo'lim boshliqlari M.J. Ermamatov, M.Abdullaeva maqola bilan ishtirok etishdi.